

Geneva Challenge xalqaro talabalar tanlovi

Qayerda: Shvetsariya, Jeneva

Kim uchun: Magistratura yoki PhD/doktoranturada o'qiyotgan talabalar uchun

Ro'yxatdan o'tish muhlati: 2018-yilning 16-aprelgacha

Umumiy ma'lumot: Shvetsariyaning Jeneva shahrida joylashgan Graduate Institute oliy ta'lim muassasasi «Advancing Development Goals Contest» tanlovi uchun ro'yxatdan o'tish boshlanganligini e'lon qildi. Ushbu tanlovda dunyoning istalgan burchagida tahsil olayotgan magistrlar yoki aspirantlar (PhD) o'zlarining innovatsion g'oyalari bilan qatnashishi mumkin.

Tanlov mavzusi: Tanlovning asosiy g'oyasi klimat (ob-havo/atrof-muhit) o'zgarishi bilan bog'liq muammolarni yechishga qaratilgan va asoslangan projeklarni to'plash hamda ularda amalda foydalanish hisoblanadi. Nomzodlar ushbu sohada o'z projektlarini taqdim etishlari mumkin.

Nomzodlar tanlovda guruh bo'lib ishtirok etadilar va bitta guruhda magistratura yoki PhD bosqichida tahsil olayotgan 3-5 ta talaba bo'lishi mumkin.

Ishtirokchilar:

- Atrof-muhit/ob-havo o'zgarishi bilan bog'liq biror muammoni aniqlashi lozim;
- Ushbu muammo aynan qanday va qay darajada ta'sir ko'rsatayotganligi haqida sohalararo tahliliy material tayyorlashi kerak;
- Ushbu muammoni siyosiy, amaliy va texnologik jihatdan hal qilish uchun yechimlar berishi hamda usbu yechimlar qanday amalga oshirilishini asoslab berishi kerak.

Mukofot: Sovrinli o'rinlarni egallagan guruhlar quyidagi mukofotlar bilan taqdirlanadi:

- Eng yaxshi projektning mualliflari **10 ming** Shvetsariya franki (taxminan **11 ming AQSh dollari**) miqdoridagi pul mukofoti bilan taqdirlanadi – 1ta guruh.
- Ikkinchi o'rinni olgan projektning mualliflari **5 ming** Shvetsariya franki (taxminan **5500 AQSh dollari**) miqdoridagi pul mukofoti bilan taqdirlanadi – 2ta guruh.
- Uchinchi o'rinni olgan projektning mualliflari **1500 ming** Shvetsariya franki (taxminan **2750 AQSh dollari**) miqdoridagi pul mukofoti bilan taqdirlanadi – 2ta guruh.

Beshta eng yaxshi guruh Jenevaga taklif qilinadi va ular o'z projektlarini hakamlar hay'atiga namoyish etishi hamda projekt yuzasidan savollarga javob berishi kerak. Ushbu beshta guruhning Jenevaga borish va kelish xarajatlari to'liq qoplanadi. G'oliblar ana shu 5ta guruhlar orasidan tanlanadi.

Nomzodga qo'yilgan talablar:

- Nomzod hujjat topshirayotgan paytda magistratura yoki PhD bosqichida o'qiyotgan bo'lishi lozim;
- Nomzodlar turli sohalardan bo'lgan 3-5 kishilik guruh tashkil etishi lozim;
- Yakka o'zi qatnashmoqchi bo'lganlar ushbu dasturga qatnasha olmaydi, faqat guruh shaklida qatnashish kerak.

Nomzodlar **2018-yilning 16-apreligacha** tanlovda qatnashish uchun ro'yxatdan o'tishi lozim. Shuningdek, nomzodlar hozirda magistratura yoki PhD bosqichida tahsil olayotganligini tasdiqlovchi ma'lumotnoma ham taqdim qilishi lozim.

Guruh ro'yxatdan o'tgacha, projeklarni **2018-yilning 20-avgustigacha** qabul qilinadi.

Batafsil **SHU YERDA** (<http://graduateinstitute.ch/TheGenevaChallenge>) tanishing.